

KREDIT MAHSULOTI PASPORTI

Kredit mahsulotining turi va nomi	Overdraft
Qarz oluvchiga qo'yiladigan talablar	O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan, 18 yoshga to'lgan, "Asia Alliance Bank" ATBda oylik ish haqi yoki pensiya to'lovi doirasida maxsus so'm plastik kartochka hisob raqamiga ega bo'lgan jismoniy shaxs.
Overdraft valyutasi	O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi – so'm
Overdraft miqdori	Qarz oluvchining o'rtacha oylik ish haqi (soliqlar va boshqa majburiy to'lovlardan tashqari) yoki pensiya miqdorining 3 barobaridan oshmagan miqdorda;
Overdraft maqsadi	Maqsadsiz
Overdraft muddati	12 oydan oshmagan muddatga;
Taqdim etish shakli	Qarz oluvchining «Asia Alliance Bank» ATBda oylik ish haqi yoki pensiya to'lovlari doirasida ochilgan so'm plastik kartasiga pul o'tkazish yo'li orqali;
Foiz stavkasi	Yillik 21%;
Limitning kamayish grafigi bo'yicha imtiyozli davr	3 oy muddatgacha;
Overdraft ta'minoti	<ul style="list-style-type: none">• 100.0 mln.so'mgacha ajratiladigan overdraft uchun 125 foizdan kam bo'lmagan miqdorda, uchinchi shaxs kafilligi, likvidli mol-mulk garovi hamda ta'minotsiz shartlarda taqdim etiladi;• 100.0 mln.so'mdan yuqori miqdorda ajratiladigan overdraft uchun 125 foizdan kam bo'lmagan miqdorda likvidli mol-mulk garovi hamda ta'minotsiz shartlarda taqdim etiladi.
Talab etiladigan hujjatlar	A) Shaxsni tasdiqlovchi hujjat (pasport, ID-karta, yashash uchun guvohnoma va h.k.); B) Overdraft qaytarilishini ta'minlovchi hujjatlar; C) Mustaqil baholovchi tashkilotning garov mulkini baholash to'g'risidagi hisoboti (kredit mol-mulk garovi asosida ajratilganda); Qarz oluvchining daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlar bank tomonidan maxsus tarmoqlar orqali elektron shaklda mustaqil ravishda olinadi. Daromadlarni aniqlash imkoniyati bo'lmagan taqdirda, ularni tasdiqlovchi hujjatlar qarz oluvchidan talab qilinishi mumkin. Bunda daromadlar to'g'risidagi ma'lumotlar kamida oxirgi 6 (olti) oy uchun hisoblandi.
Overdraftni qaytarish tartibi	Overdraft limiti kamayish grafigi imtiyozli davr hisobi bilan oylik teng to'lovlarda taqsimlanadi.

Alohida shartlar

Overdraft qarz oluvchining ish haqi loyihasi yoki pensiya to'lovlari doirasida plastik kartochkasi ochilgan Bankning Amaliyot boshqarmasi/MBXOlari tomonidan taqdim etiladi.

- MIB joriy qarzdorligi bo'lmasligi;
- Kredit byurolaridan olingan so'nggi 3 yil muddatdagi kredit tarixi ijobiy bo'lishi lozim. Bunda:
 - 30+ 10 tagacha yo'l qo'yiladi;
 - 60+ 5 tagacha yo'l qo'yiladi;
 - 90+ 1 tagacha yo'l qo'yiladi;
- Overdraft ta'minotsiz shartlarda taqdim etilganda, overdraftning 125 foizi miqdorida qarz oluvchini baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug'urtalash bo'yicha sug'urta polisi rasmiylashtiriladi;
- **100.0 mln.so'mdan yuqori miqdorda ta'minotsiz shartlarda ajratiladigan overdraft uchun:**
 - Uzluksiz daromadlar to'g'risidagi ma'lumotlar kamida 12 oy uchun hisoblanadi;
 - "Infoscore"dan o'tish ko'rsatkichi B370 ball;
 - Qarz oluvchining qarz yuki ko'rsatkichi 40 foizdan oshmasligi lozim;
 - Qarzning daromadga nisbati ko'rsatkichi 8 barobardan oshmasligi lozim;
 - So'nggi besh yillik kredit tarixi olinadi;
 - Kredit byurolaridan olingan so'nggi 3 yil muddatdagi kredit tarixi ijobiy bo'lishi lozim. Bunda:
 - 30+ 3 tagacha yo'l qo'yiladi;
 - 60+ 1 tagacha yo'l qo'yiladi;
 - 90+ yo'l qo'yilmaydi.